

---

“Tashabbusli byudjet”ning ikkinchi mavsumida Qo’shtepa tumanida umumiy qiymati 7,92 mlrd. so’mlik 6 ta loyiha g’olib bo’ldi

2023 yilning ikkinchi mavsumi uchun “Tashabbusli byudjet” uchun ovoz berish jarayoniga Farg’ona viloyati bo’yicha jami 3390 ta loyiha ilgari surilgan edi. Ularning 2837 tasi tasdiqlangan. Tashabbuslarni qo’llab-quvvatlab, 2 mln. 782 ming 376 ta ovoz berilgan.

2023 yilning ikkinchi mavsumi uchun o’tkazilgan tanlovda Farg’ona viloyatida 97 ta loyiha g’olib bo’ldi. G’olib loyihalarning umumiy qiymati 122 mlrd. 381 mln. so’mni tashkil etadi.

Xususan, Qo’shtepa tumanida umumiy qiymati 7,92 mlrd. so’mlik 6 ta loyiha g’olib bo’ldi.

2023-09-19 14:38:59